

"O'ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI" MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

BAHOUDDIN NAQSHBAND TO'G'RISIDAGI MA'LUMOTLAR AKS ETGAN ASARLAR

Muborak Omanova,
Nizomiy nomidagi TDPU O'zbek
adabiyoti va uni o'qitish metodikasi
kafedrasi dotsenti, filol.f.f.d. (PhD)

***Annotatsiya.** Maqolada mashhur avliyo, naqshbandiya tariqatining asoschisi, Sharq xalqlari tafakkuri taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan alloma – Bahouddin Naqshband haqidagi ma'lumotlar aks etgan asarlar tahlilga tortilgan.*

***Kalit so'zlar:** Bahouddin Naqshband, "Maqomoti Xoja Naqshband", "Hazrat Bahouddin Naqshband", "Dilda yor (Hazrat Bahouddin Naqshband)", "Naqshband va Navoiy", tariqat, falsafa, tasavvuf, adabiyot.*

***Abstract.** The article analyzes works containing information about the famous saint, founder of the Naqshbandi order, scientist, who made a great contribution to the development of thought of the peoples of the East - Bahauddin Naqshband.*

***Keywords:** Bahauddin Naqshband, "Makamoti Khoja Naqshband", "Hazrat Bahauddin Naqshband", "Dilda yor (Hazrat Bahauddin Naqshband)", "Naqshband and Navoi", tarikat, philosophy, mysticism, literature.*

Ma'lumki, 1993-yilda mashhur avliyo, naqshbandiya tariqatining asoschisi, Sharq xalqlari tafakkuri taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan alloma – Bahouddin Naqshband¹ (1318-1389) tavalludiga bag'ishlab ko'plab ilmiy anjumanlar bo'lib o'tdi. "Naqshbandiya ta'limoti va uning jahonshumul ahamiyati" monografiyasi va Abdurahmon Jomiyning "Nafahot ul-uns", As-Safiyning "Rashohoti aynul-hayot"² asarlaridagi ushbu ta'limotga oid ma'lumotlar tarjima etilib, ilmiy sharhlar bilan nashr etildi. Ulug' shayx tug'ilgan Qasri Orifon³ qishlog'ida ulkan bunyodkorlik ishlari amalga oshirildi.

Abu Muhsin Muhammad Boqir ibn Muammad Alining "Maqomoti Xoja Naqshband"⁴ asari nashr etildi. Bu asar Bahouddin Naqshband hayoti, bosib o'tgan ibratli yo'li, sulukining asoslari va uni rivojlantirishga hissa qo'shgan kishilarning faoliyatini mukammal bayon qiluvchi muhim manbadir. Asar Maxdum Hasanson Maxdum o'g'li tomonidan "Bahouddin Balogardon" nomi bilan forsiydan tarjima qilindi. Kitob Taqdim, Muqaddima, uch maqsad (ya'ni bob, izoh bizniki M.O.) va lug'atdan iborat. Muallif asarning Taqdim qismida Xoja Bahouddin Naqshbandning hayot yo'llari va ul zot haqdagi risolalarni bayon qiladi. Muqaddimada Bahouddin

¹ Bahouddin Naqshband (1318-1389) – Muhammad binni Muhammad Bahouddin an-Naqshband al-Buxoriy – Bahouddin yoki Xoja Bahouddin, Balogardon, Xo'jai Buzruk, Shohi Naqshband nomlari bilan mashhur. (M.O.)

² Idris Shoh. Naqshbandiy tariqati. – Toshkent: O'zbekiston, 1993. – 64 b.

³ U tug'ilgan qishloq Qasri Hinduvon (keyinchalik Bahovuddin Naqshband sharafiga Qasri Orifon) deb atalgan (M.O.).

⁴ Abu Muhsin Muhammad Boqir ibn Muammad Ali. Bahouddin Balogardon. – Toshkent: Yozuvchi, 1993. – 208 b.

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

Naqshbandning tavallud topishlari va silsilalari nisbati keltiriladi. Birinchi bobda shayxning boshlang‘ich hollari; ikkinchi bobda suluk yo‘li, darveshlik sifati, ahvol va axloqlari bayon qilingan. Shuningdek, sharif majlislarda ularning muborak og‘izlaridan chiqqan nozik so‘zlar va mo‘jiza kalomlar keltirilgan. Uchinchi bobda valiylik darajasiga yuksalgan bu inson turli joylarda ko‘rsatgan karomatlari va g‘ayritabiiy holatlar bayon qilingan. Kitobga ilova qilingan lug‘at ayrim atamalarning tushunilishini osonlashtirishga xizmat qiladi.

Yevgeniy Berezikovning “Hazrat Bahouddin Naqshband”⁵ asari turli rivoyatlar va Jomiyning “Bahoriston”, Faxriddin Ali Safiyning “Rashahoti aynul-hayot”, Navoiyning “Nasoyimul muhabbat”, Abul Vose’ Nizomiyning “Maqomoti mavlono Jomiy”, So‘fi Ollohyorning “Sabotul ojizin”, Ibn Arabshohning “Ajoyib -ul maqdur fi axbori Taymur”, Abu Muhsin Muhammad Boqir ibn Muhammad Alining “Siyрати Xoja Bahouddin Naqshband quddusa sirrahu”, Y.E.Bertelsning “Jomiy”, E.Rustamovning “XV asr birinchi yarmida o‘zbek she‘riyati” singari ilmiy va tarixiy-adabiy manbalarga asoslanib yozilgan. Asarda Bahouddin Naqshband hayoti hamda suluki haqida muxtasar ma‘lumot berilgan. Asar so‘ngida tarjimon va muharrir izohlari keltirilgan.

Tarixchi, tasavvufshunos olim, shoir va tarjimon Sadrididdin Salim Buxoriyning “Bahouddin Naqshband yoki Yetti pir”⁶ kitobida Xojagon-naqshbandiya tariqati “Silsila”larida qayd etilgan yetti pir: Abdulxoliq G‘ijduvoni, Xoja Muhammad Orif ar-Ravgariy, Xoja Mahmud Anjir Fag‘naviy, Xoja Ali ar-Rometaniy, Xoja Muhammad Sammosiy, Hazrat Amir Kulol, Hazrat Bahouddin Naqshband haqida qisqacha ma‘lumot berilgan.

Sadrididdin Salim Buxoriyning “Buxoroning tabarruk ziyoratgohlari”⁷ kitobida uch ming yildan ortiq tarixga ega bo‘lgan bu azim diyorda yashab ijod etgan yetti yuzga yaqin alloma, obid, zohid pirlar; shuningdek, shoir, dehqon, kosib, me‘mor – bunyodkor ustodlar bilan bog‘liq ziyoratgohlarning nomlari keltirilgan. Asarda ma‘naviyatimiz darg‘alarining tabarruk ziyoratgohlari, shu allomalar, orif-avliyolarning hayoti, merosi, ibratli hayot yo‘llari, xulq-odobi, kasb-kori, ilm-ma‘rifati, imon-e‘tiqodi haqida ham hikoya qilingan. Muallif xalq og‘zaki ijodi hamda arab, fors tillari va eski o‘zbek yozuvida bitilgan, aksariyati qo‘lyozma holida bo‘lgan tarqoq manbalarni sabr-matonat bilan ijodiy o‘rgandi, bir jild ostida to‘pladi. Shu ma‘noda, “Buxoroning tabarruk ziyoratgohlari” kitobi o‘ziga xos qomusiy asardir.

⁵ Nasafiy (Yevgeniy Yefimovich Berezikov). Hazrat Bahouddin Naqshband. – Toshkent: Fan, 1993. – 48 b.

⁶ Sadrididdin Salim Buxoriy. Bahouddin Naqshband yoki Yetti pir. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2009. – 35 b.

⁷ Sadrididdin Salim Buxoriy. Buxoroning tabarruk ziyoratgohlari. – Buxoro: “Durdona” nashriyoti, 2012. – 302 b.

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

Sadriiddin Salim Buxoriy “Dilda yor (Hazrat Bahouddin Naqshband)”⁸ badiasida Qur’oni karim va Hadisi sharif hikmatlariga faol murojaat qilgan. Kitobni yozish jarayonida Abulhasan Muhammad Boqir Muhammad Alining “Maqomoti shohi Naqshband”, Nuriddin al Buxoriyning “Tuhfat az Zoirin” (“Ziyoratchilarga tuhfa”), Sohibqiron Amir Temurning “Temur tuzuklari”, Jomiyning “Nafohatul – uns”, Alisher Navoiyning “Nasoyim ul muhabbat”, Shayx Voiz Koshifiyning “Futuvvatnomayi sultoniya”, al-G‘azzoliyning “Oxiratnoma”, Muhammad Siddiq Rushdiyning “Tazkirat ul avliyo”, shuningdek, “Tuhfat ul ansob”, “Maqomoti Amir Kulol”, “Robitayi murshid” singari qimmatli manbalarda keltirilgan ma’lumotlardan ijodiy foydalangan. Shu bois ushbu asar turli sura va oyatlar, hadislar, hikoyat va rivoyatlar bilan ziynatlangan. Unda shariat, tariqat, haqiqat maqomlari haqida qimmatli ma’lumotlar keltirilgan. Naqshbandiya tariqatining usul va odobi bayon qilingan.

Sultonmurod Olimning “Naqshband va Navoiy”⁹ kitobida Bahouddin Naqshband va Ahmad Yassaviy bilan Alisher Navoiyni o‘zaro bog‘lab turuvchi rishtalar xususida so‘z yuritildi. Ularning bashariyat xazinasiga qo‘shilgan durdona fikr-g‘oyalari tahlili asnosida hayot, falsafa, tasavvuf, adabiyot va milliy g‘oyaning o‘zaro chambarchas aloqadorligi ko‘rsatildi.

Ozod Mo‘minning “Hazrat Said Amir Kulol (tarixiy voqeanomalar)”¹⁰ asari movarounnahrlilik buyuk shaxs, valiy Hazrat Sayyid Amir Kulolga bag‘ishlandi. Tarixiy qissada Amir Kulolning hayoti va faoliyati yoritildi. Tahsil olgan ustozlari, ta’lim bergan shogirdlari – Orif Deggaroniy, Shamsiddin Kulol, Bahouddin Naqshband hamda Amir Temur bilan bog‘liq voqealar tasvirlandi. Badiiy-tarixiy qissa muallifi aziz-avliyolarga xos bo‘lgan fazilat-xislatlar, kayfiyat- hollarni ilmiy va falsafiy tomondan asoslashga harakat qildi.

2018-yil sentabr-oktabr oylarida Abduxoliq G‘ijduvoniy va Bahouddin Naqshband merosining ayrim namunalari xorijiy tillarga tarjima qilindi. Ularning hayoti, faoliyati, ilmiy merosiga oid xorijiy mamlakatlardagi qo‘lyozma manbalar, ilmiy tadqiqotlar va adabiyotlar haqidagi ma’lumotlar jamlanib, nashr etildi va ziyoratgohlari obod qilindi.

⁸ Sadriiddin Salim Buxoriy. Dilda yor (Hazrat Bahouddin Naqshband) Badiya. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1993. – 80 b.

⁹ Sultonmurod Olim. Naqshband va Navoiy. – Toshkent: O‘qituvchi, 1996. – 216 b.

¹⁰ Ozod Mo‘min Xo‘ja. Hazrat Said Amir Kulol (tarixiy voqeanomalar). – Toshkent.: “Toshkent islom universiteti” NMB, 2012. – 176 bet.

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

Turkiyalik olim va mutasavvif, naqshbandiya tariqati peshqadamlaridan biri – Shayx Umar Foruq Saydo al-Jazariyning “O‘zbekiston – avliyolar vatani”¹¹ risolasi Abdumurod Tilavov tarjimasida chop etildi. Kitob to‘rt bo‘limdan iborat bo‘lib, ilk bo‘limda tarjimonning muallif bilan suhbat berilgan. Ikkinchi bo‘limda yetti pir: Abduxoliq G‘ijduvoni, Orif Revgariy, Mahmud Anjir Fag‘naviy, Ali Romitaniy, Muhammad Bobo Sammosiy, Sayyid Amir Kulol, Bahouddin Naqshband o‘g‘itlari joy olgan. Uchinchi bo‘limda nafis majlislar va nodir hikmatlar keltirilgan. To‘rtinchi bo‘limda Bahouddin Naqshband “Avrod” asarining Gulchehra Navro‘zova tarjimasidagi matni berilgan.

Musulmon Namozning 2018-yilda chop etilgan “Bahouddin Naqshband”¹² nomli kitobi Avvalgi so‘z (Muqaddima) va So‘ngso‘z (Xotima)dan tashqari, bir-birini mantiqan to‘ldiruvchi sakkiz bobdan tarkib topdi. Asarda Bahouddin Naqshbandning hayoti va faoliyati, ustozlari, shogirdlari, do‘stlari hamda tasavvuf ta’limotiga qo‘shgan ulkan hissalar haqidagi tarixiy bitiklar bugungi kun nuqtayi nazaridan tanqidiy tahlil etilgan.

Shubhasiz, barcha tadqiqotchilar birinchi navbatda Qur’oni karim va Islomning ikkinchi asosiy manbasi bo‘lmish hadis to‘plamlari, xususan, “Jome’ us sahih”¹³ (Imom Buxoriy)ga, shuningdek, “Tazkirat ul avliyo”¹⁴ (Fariduddin Attor), “Nafahot ul-uns” (Abdurahmon Jomiy), “Nasoyim ul muhabbat”¹⁵ (Alisher Navoiy), “Maqomoti Yusuf Hamadoni”¹⁶ (Xoja Abduxoliq G‘ijduvoni), “Maqomoti Xoja Bahouddin Naqshband”¹⁷ (Abul Muhsin Muhammad Boqir ibn Muhammad Ali), “Orifnoma”¹⁸ (Xoja Muhammad Orif Revgariy), “Silsilai xojagoni naqshbandiya”¹⁹ (Muhammad Tohir ibn Muhammad Tayyib Xorazmiy), “Rashahoti ayni-l-hayot” (Faxruddin Ali Safiy), “Samarot ul-mashoyix” (Muhammad Mirak ibn Azizon Xoja Mir al-Husayniy) va boshqa naqshbandiya tariqati, uning buyuk namoyandalari

¹¹ Shayx Umar Foruq Saydo al-Jazariy – Naqshbandiy. O‘zbekiston – avliyolar vatani. – Toshkent: Sano-Standart, 2019. – 176 b.

¹² Musulmon Namoz (Namozov Musurmon). Bahouddin Naqshband. – Toshkent: Sharq, 2018. – 226 b.

¹³ Oltin silsila-Sahihul Buxoriy. – Toshkent: “Hilol-Nashr” nashriyot-matbaasi, 2021 (2013,2016,2019). – 672 b.

¹⁴ Farididdin Attor. Tazkirat ul-avliyo. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. – 464 b.

¹⁵ Alisher Navoiy. MAT., O‘n yettinchi jild. Nasoyim ul-muhabbat. – Toshkent: Fan, 2001. – 519 b.

¹⁶ Xoja Abduxoliq G‘ijduvoni. Maqomoti Yusuf Hamadoni. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2003. – 44 b.

¹⁷ Abul Muhsin Muhammad Boqir ibn Muhammad Ali. Maqomoti Xoja Bahouddin Naqshband. / Forsiydan tarjimon, so‘z boshi, izoh va lug‘at muallifi Mahmud Hasaniy. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2019. – 335 b.

¹⁸ Xoja Muhammad Orif ar-Revgariy. Orifnoma // Fors-tojik tilidan Sadridin Salim Buxoriy, Isroil Subhoni tarjimasi. – Toshkent: Navro‘z, 1994. – 16 b.

¹⁹ Abu Rayhon Beruniy nomidagi sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar xazinasida №7017-1, 856-1 raqami ostida saqlanayotgan turkiy nusxasi. Asarda ilk islom davridan 1747 yilga qadar yurtimizda yashagan, turli sohalarda faoliyat yuritgan 320 nafardan oshiq suluk ahli va olimlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar jamlangan. U hijriy 1160 yili (1747) yozib tugallangan bo‘lib, hijriy 1329 yili (1911) Muhammad Ya‘qub oxund Beshariy tomonidan Xiva shahrida ko‘chirilgan. Manbalarda “Silsilai xojagoni naqshbandiya”, “Tazkirai Tohir eshon”, “Tazkirat ul-avliyo” nomlari bilan ham uchraydi. (M.O.)

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

haqida keng ma'lumotlar beruvchi mo'tabar ilmiy va tarixiy-adabiy manbalarga murojaat qilishga intilishdi. Ular orqali jamiyatimizning bugungi eng muhim muammolariga javob izlashdi. Darhaqiqat, bunday ezgu ishlar naqshbandiya ta'limoti asosi bo'lgan mehnatsevarlik, vatanparvarlik, ilm-ma'rifatga intilish, mehr-oqibatli bo'lish g'oyalarining yosh avlod tarbiyasida muhim ahamiyatga ega ekani bilan chambarchas bog'liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Idris Shoh. Naqshbandiy tariqati. – Toshkent: O‘zbekiston, 1993. – 64 b.
2. Abu Muhsin Muhammad Boqir ibn Muammad Ali. Bahouddin Balogardon. – Toshkent: Yozuvchi, 1993. – 208 b.
3. Nasafiy (Yevgeniy Yefimovich Berezikov). Hazrat Bahouddin Naqshband. – Toshkent: Fan, 1993. – 48 b.
4. Sadriddin Salim Buxoriy. Bahouddin Naqshband yoki Yetti pir. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2009. – 35 b.
5. Sadriddin Salim Buxoriy. Buxoroning tabarruk ziyoratgohlari. – Buxoro: “Durdona” nashriyoti, 2012. – 302 b.
6. Sadriddin Salim Buxoriy. Dilda yor (Hazrat Bahouddin Naqshband) Badia. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1993. – 80 b.
7. Sultonmurod Olim. Naqshband va Navoiy. – Toshkent: O‘qituvchi, 1996. – 216 b.
8. Ozod Mo‘min Xo‘ja. Hazrat Said Amir Kulol (tarixiy voqeanomalar). – Toshkent.: “Toshkent islom universiteti” NMB, 2012. – 176 bet.
9. Shayx Umar Foruq Saydo al-Jazariy – Naqshbandiy. O‘zbekiston – avliyolar vatani. – Toshkent: Sano-Standart, 2019. – 176 b.
10. Musulmon Namoz (Namozov Musurmon). Bahouddin Naqshband. –Toshkent: Sharq, 2018. – 226 b.
11. Oltin silsila-Sahihul Buxoriy. –Toshkent: “Hilol-Nashr” nashriyot-matbaasi, 2021 (2013,2016,2019). – 672 b.
12. Farididdin Attor. Tazkirat ul-avliyo. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. – 464 b.
13. Alisher Navoiy. MAT., O‘n yettinchi jild. Nasoyim ul-muhabbat. – Toshkent: Fan, 2001. –519 b.
14. Omanova M.A. Updating views on literary heroes and glory in the novels of the period of independence //Novateur publications JournalNX-A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal. Volume 6, ISSUE 10, Oct. 2020 - P 415-419. (Impact Factor – 7.223).
15. Omanova, M. (2024). IMPORTANCE OF VOICE IN EXPRESSIVE READING. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 12(1), 125-128.

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

16. Omanova, M. (2024). NIZOMIY GANJAVIY MEROSINING ALISHER NAVOIY IJODIGA TA’SIRI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 4(20), 24-27.
17. Umida, R. (2024). THE RELEVANCE OF RHYTHM IN PROSE FICTION. *Journal of Modern Educational Achievements*, 1(1), 288-294.